

10.00.00 - "FILOLOGIYA"

Yuldashev Doniyor. Ogahiyning poetonimlardan foydalanish mahorati.....	32
Xudayarova Dilnoza Shavkatovna. Komil Xorazmiy murabba'lari.....	54
Бурибаева Азиза Исматиллаевна. Подходы к исследованию сущности аргументации устной речи.....	58
Катаева Шахноза Альбертовна. О некоторых особенностях развития перевода поэтических произведений русских классиков на узбекский язык.....	83
Усенова Гулмира Абыллаевна. Отражение норм и ценностей в английских сравнениях с компонентом флора.....	87
Искендерова Елизавета Камалатдиновна. Қорақалпоқ лингвомаданиятида "бўри/қашқир" концепти.....	91
Seytmuratova Ariwxan Ajiniyazovna. Qaraqalpaq tilindegi súwretlew óneri terminleriniń tematikalıq toparları.....	96
Yusupova Gulxumor. Zamonaviy o'zbek tilshunosligida gender masalalari.....	122
Мамбетова Гулназ Жаксымуратовна. Кеңесбай Алламбергеновтың «Дәрья тартылған жыллар» романында гидронимлерди жасаушы апеллативлер.....	136
Turdaliyeva Shahnoza Uktamovna. Ingliz tilidagi fitotematik gibrid komponentli maqollar: sintaksis tahlil.....	150
Sultonova Gulchehra Xusanovna. Aforizmlarni til va uslubiy jihatdan tahlil qilish metodlari.....	154
Mirzaeva Feruza Samidjonovna. Ingliz va o'zbek tillarida antroponimik komponentli maqollarning qiyosiy tahlili.....	157
Tangirov Ro'ziboy. Shukur Xolmirzayevning "Qadimda bo'lgan ekan" hikoyasida arxetipik motiv va obrazlar talqini.....	160
Xudayberganova Diana Vladimirovna. "Dunyoning ishlari" qissasining tarbiyaviy ahamiyati.....	163
Ochilova Gulnora Ulashevna. Qarindoshlik otlari atamaları tadqiqining asosiy yo'nalishlari tahlili.....	174
Saydazimova Sanobar. Diniy manbalarda "Paranormal epizodlar" takomili (N.Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" va A.Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlari misolida).....	178
Botirova Anaxon Dilmurod qizi. Pirmqul Qodirov ijodida insoniy fazilatlarining ilgari surilishi.....	183
Bobojanova Shoiri Yo'ldoshevna. Xorazm viloyatidagi o'g'uz shevalari gastronomik leksikasining tarixiy taraqqiyot manbalari.....	191
Oripov Davronbek Ravshanbek o'g'li. O'zbekistonda "O'g'uznoma" nashrlari.....	202
Nunnanova Gulshaydo Bekpulatovna. Baho va qiymatni ifodalovchi lingvistik vositalar: leksik, grammatik, frazematik va pragmatik yondashuv.....	210
Muqimova Zohida Rasulovna. Ota-onaga hurmat oliy qadriyat sifatida.....	214
Jo'rayeva Gavhar Eshqobilovna. Asqar Mahkam she'riyatida tabiat va muhabbat tasviri.....	223
Boymurodova Gulhayo Mamasharip qizi. Ingliz maqollarinig morfologik xususiyatlari.....	226
Saidova Muxlisa Narmetovna. Leksikada abstraktlashish prinsiplari.....	229
Shoynazarova Vazira Xo'shboqovna. Ingliz tilining agronomiyadagi o'ziga xos terminologiya va atamalarni o'rganish zaruriyati.....	238
Abdumalikov Fazliddin Baxtiyor o'g'li. Til va nutq birliklari: nutqiy muloqot ko'rinishlari.....	241
Axmedova Adolat Ravshan qizi. Reklama matnlari tilshunoslikda tadqiqot obyekti sifatida.....	247
Murtazayeva Xadicha Nuriddinovna. Tibbiy terminologik tadqiqotlar doirasida tibbiy terminlarning shakllanishi.....	253
Berdikulova Shaxnoza Ro'ziqulovna. Ingliz tilida bog'lovchilar: ma'nosi va qo'llanilishi.....	262
Rajabova Maftuna Bahramovna. O'zbek va fransuz adabiyoti tarjimalarida ijobiy qahramonlar tasviri.....	265
Косымбетова Айгуль Есбосиновна. Авторская пунктуация в произведениях Сагинбая Ибрагимова.....	268
Muhammadiyev Axadjon Maxmudovich. Qo'qon adabiy muhitiga Fuzuliy ta'siri: an'ana va yangilanish.....	314
Mardonov Maxmud Sobir o'g'li. Amerika va o'zbek latifalarining madaniy farqlari va latifalarning janr tabiati.....	327
Rahmonova Mahbuba Ravshanovna. Sehr, marosim va uning jamiyatdagi o'rni.....	333
Masharipov Mansurbek Masharipovich, Karimova Gulbahor Narimonovna. Behbudiy publitsistikasida ko'chmlarning leksik xususiyatlari.....	339
Tuygunova Shohsanam Alijon qizi. Professional va media nutqlaridagi anglisizmlar: leksikografik muammolar va kodifikatsiya istiqbollari.....	346
Baratova Sevara Musoxonovna. Shakldosh so'zlarning masnaviyalar badiiyatidagi o'rni.....	349
Begamova Dilafuz Xolmurzayevna. O'zbek she'riyatida barmoq va aruz vaznining qo'llanish xususiyatlari (Rauf Parfi ijodi misolida).....	372
Ergasheva Dilrabo Allanazarovna. Odil Yoqubov asarlarida ma'noning implitsiv ifodalanishi.....	375
Mamadqulova Kamila Abduxoliqovna. XVIII asr adabiyotida ma'rifatparvarlik davridagi gumanizm va erkin fikr ideallari.....	378
Raimov Lazizjon Alisherovich. Tijoratga oid matnlarda psixolingvistikaning ahamiyati.....	387
Tojiddinova Sitora. "Boburnoma" ta'sirida yozilgan tarixiy asarlarning matniy-qiyosiy tadqiqi.....	390
Turdiyeva Matluba Isoqjon qizi. Ingliz va o'zbek reklama matnlarida gender tilshunoslik konstruksiyalari.....	393
Сафарова Диларом Абдукадировна. Характерные особенности названий кинофильмов.....	410
Tangriqulova Karomat Saitovna. Baliqchilik terminlari terminologik tadqiqotlarning obyekti sifatida.....	413

KOMIL XORAZMIY MURABBA'LARI

*Xudayarova Dilnoza Shavkatovna, Urganch davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

MURABBAS OF KOMIL KHOREZMI

*Khudayarova Dilnoza Shavkatovna, Independent researcher of
Urgench State University*

**МУРАББАЪ (ЧЕТВЕРОСТИШИЯ) КАМИЛЯ
ХОРЕЗМИ**

*Худаярова Дилноза Шавкатовна, независимый научный
исследователь Ургенчского государственного университета*



<https://orcid.org/0009-0002-1043-3064>

e-mail:

xudayarovadilnozash@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yetakchi namoyandalardan biri Komil Xorazmiyning murabba' janri rivojiga qo'shgan hissasi tadqiq etiladi. Shoir murabba'larining soni, hajmi, mavzu doirasi, g'oyaviy yo'nalishi, o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Murabba'navislikdagi Komil mahorati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Komil, murabba', mavzu, g'oya, an'ana, o'ziga xoslik, mahorat, badiiy san'atlar, davr, muhit.

Abstract: This article examines the contribution of one of the leading figures of Uzbek literature, Komil Khorezmi, to the development of the murabba genre. The number, volume, subject matter, ideological direction and distinctive features of the poet's murabbas are discussed. Komil's mastery of murabba writing is revealed.

Keywords: Komil, murabba, subject, idea, tradition, originality, skill, artistic arts, time
Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос о вкладе Камил Хорезми, одного из ярких представителей узбекской литературы, в развитие жанра мураббаъ. Приводятся сведения о количестве, объеме, тематическом охвате, идейном содержании, а также других особенностях произведений указанного жанра. Раскрывается его мастерство по созданию образцов мураббаъ.

Ключевые слова: Камиль, мураббаъ, тема, идея, традиция, особенность, мастерство, художественные средства, период, среда.

KIRISH. Komil Xorazmiy (1825-1899) iste'dodli shoir, mohir tarjimon, davlat arbobi, musiqashunos sifatida samarali faoliyat yuritgan. Uning boy adabiy merosi badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi. Komilning she'riy merosida murabba'larning ham alohida o'rni bor. Ma'lumki, har bandi to'rt misradan iborat she'riy janr murabba' deb yuritiladi. Musammam turkumiga kiruvchi bu janr qofiyalanish tizimi, o'ziga xos xususiyatlari bilan alohida ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Komil she'riyati, jumladan murabba'lari bo'yicha M.Yunusov [1.125],

G'.Karimov [2.256], A.Hayitmetov [3.96], Y.Yusupov [4.113] tadqiqotlarida ma'lumotlar keltirilgan. Shoirning she'rlaridan namunalarni R.Majidiy [5.52], A.Hayitmetov, V.Mo'minova[6.224], Sh.Nuriddinovlar[7.132] nashrga tayyorlagan.

Biz ushbu maqolamizda qiyosiy-tarixiy, germenevtik, struktural tahlil metodlaridan foydalandik.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Komilning 1975-yilda nashrdan chiqqan devoniga uning ikkita murabba'si kiritilgan. Bular "O'tub ko'b oy-u yillar so'rmading holi parishonim" va "Falak

bedodin maskan manga ko'yi mazallatdur" deb boshlanuvchi murabba'lardur. 1965-yilda nashrdan chiqqan devonda shoirning murabba'lari kiritilmagan. Matnshunos olim Sh.Nuriddinov tadqiqotlarida esa Komil murabba'lari 3 ta ekanligini ta'kidlanadi.

Komil murabba'lari son jihatdan ozchilikni tashkil qilsa ham, mazmundorligi, xalqchilligi, she'riy san'atlarga boyligi bilan janr taraqqiyotiga munosib hissa bo'lib qo'shildi. Shu jihatdan ijodkor lirik merosidan joy olgan bu janrni o'rganish bugungi adabiyotimizning oldidagi muhim vazifalar sirasiga kiradi.

"O'tub ko'b oy-u yillar so'rmading holi parishonim" deb boshlanuvchi murabba' to'qqiz banddan iborat bo'lib, qofiyalanish qonun-qoidalariga qat'iy amal qilingan. Birinchi band to'liq qofiyadosh (a, a, a, a). Qofiyadosh so'zlarni tanlashda ham shoir tilimiz imkoniyatlaridan mohirona foydalangan. Qofiya tarkibida qo'llanilgan egalik qo'shimchasi lirik qahramon bilan ma'shuqa o'rtasidagi o'zaro ma'naviy, ruhiy yaqinlik sezimlarini his qilish imkonini bergan:

O'tub ko'b oy-u yillar so'rmading holi parishonim,

Itobing shiddatidin og'zima yetmishdurur jonim.

Nedin bir demading yillarda, ey kamtar sanoxonim,

Chu Yusuf Misr izzat masnadida mohi Kan'onim [6.171].

Nazmning bu turida ham shoir ishq va oshiqlik mavzusiga to'xtalar ekan, murabba'ning dastlabki bandida lirik qahramon ma'shuqaning bevafoigidan azob chekayotgan holati tasvirlanadi. Komil inson ruhiyatida bo'lgan o'zgarishlarni sodda va ravon tilda tasvirlashda o'ziga xoslikka erisha olgan. Banddagi tasvirga e'tibor bersak, shoir har misraning o'zida oshiq bilan ma'shuqaning holatini barobar ifodalab ketadi, ya'ni birinchi misrada oy-u yillar o'tsa-da, xabar olmagan ma'shuqa va bundan parishon bo'lgan oshiq; ikkinchi misrada shiddatli itob qilayotgan ma'shuqa va joni og'ziga kelgan oshiq holatlarini parallel ravishda ifodalashi xuddi epik asarlardagi boshlanma (epilog) kabi davomi qanday bo'ladi degan fikrni uyg'otadi.

Keyingi baytda esa tasvir ma'shuqa husn-u tarovatiga qaratiladi. Shoir tasvirlayotgan yor jamoli oldida bahor kelib jahon gullari gulshanda jam bo'lsa ham, ma'shuqaga tenglasha olmasligi ta'kidlanadi.

Shoir misralarni davom ettirar ekan, tansiq-us sifat, istiora, qaytarish san'ati bilan bog'liq yorqin manzara, o'ziga xos uslubda aks ettiriladi:

Qaddingdek yo'q nihole, lablaringdek g'unchayi xandon,

Qadi sarvi xiromonim, labi gulbargi xandonim [6.171].

Komil misralarda badiiy san'atlar qo'llashda o'ziga xos usuldan mahorat bilan foydalangan. She'rda qo'llanilgan istioralar *g'unchayi xandon, sarvi xiromon, gulbargi xandon* yorning qaddi va labini jozibali va aniqroq ifodalashga xizmat qilgan. Bir qarashda bu an'anaviy tashbeh va istioralar takrorlangandek tuyulsa ham, ikki misraga jam bo'lgan bu o'xshatishlar shoir ifodalayotgan fikrni ta'kidlash vazifasini bajargan.

Murabba'da birinchi band to'liq qofiyalanib, keyingi bandlarining to'rtinchi misralari esa birinchi band bilan qofiyadosh bo'lishi talab qilinadi. Komil qofiyadosh so'zlarni tanlashda va qo'llashda ham yangilikka intilgan. Murabba'ning beshinchi bandigacha har bandning to'rtinchi misrasida so'zlar bir-biri bilan qofiyadosh bo'libgina qolmay, shoir ifodalamoqchi bo'lgan maqsadni ham aniq ochib berish vositasi bo'lib kelgan. Sababi, beshinchi bandgacha to'rtinchi misralarda kelgan so'zlarga e'tiborni qaratamiz: *mohi Kan'onim, qadi sarvi xiromonim, labi gulbargi xandonim, afandim, mehribonim, sevdigim, jonim, labi bu nuktadonim, donish iqlimida sul-tonim, mahi bayzobjabinim* kabi so'zlar tanlangan. Bu tanlangan istioralar esa beshinchi bandgacha ifodalanayotgan tasvirning mantiqiy izchilligiga mos tushgan. Aniqroq aytadigan bo'lsak, shoir shu bandgacha ma'shuqaning husn-u jamoli, oshiqning iztirobli holati kabi tasvirlarni bergan. Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan istioralar esa bu tasvirlarga mos tanlangan. Keyingi bandlarda esa lirik qahramon ichki kechinmalari, ahvoloti, fe'l-atvori qalamga olingan. Qofiyadosh bo'lib kelgan quyidagi *madori paykarim, nuri chashmim, adl-u hoqonim, valiyi ne'matim, pusht-u panohim, darda darmonim, shahi donish panohim, ilmi hikmat ichra Luqmonim* kabi so'zlar yuqorida ta'kidlab o'tilgan lirik qahramon holatlaridan kelib chiqib tanlangan.

Shoir oltinchi banddan boshlab tasvirni ijtimoiy, axloqiy qarashlari bilan davom ettiradi. Ma'lumki, Komil ijtimoiy, siyosiy jarayonlarda bo'layotgan o'zgarishlarning ishtirokchisi sifatida o'z qarashlariga ega shaxs edi. Millat yuksalishiga

g'ov bo'luvchi illatlarga qarshi kurashuvchi sifatida she'riyat maydoniga chiqdi. Bu maydonda u qancha jabr-u sitam ko'rsa ham, adolat uchun kurashdi. Komil o'z fe'lidagi bu jihat bilan jamiyatning ko'zini ochmoqchi bo'lgan shaxs sifatida e'tiborimizni tortadi:

Emastur odatim birovga rishva-u pora,

Agar tig'i sitamdin qilsa ko'ksunni yuz pora
[6.172].

Tamagirlikni qoralayotgan shoir keyingi bandda unga qarama-qarshi tarzda qanoatni ulug'laydi. Shu tariqa Komil yashagan muhitining ijtimoiy-siyosiy voqeliklarini odilona tasvirlaydi, tanqidiy manzaralar yaratadi.

Ovqat nomlarini keltirish orqali esa oddiy xalqning iqtisodiy turmush tarziga ham urg'u berib o'tadi. Qadim tarixga ega bo'lgan go'ja, yorma kabi ovqatlar hozirgi kungacha Xorazmning milliy taomi sifatida saqlanib qolgan.

Erurman gone' o'tsa ko'ja, yorma birla avqotim,

Gar o'lsam qilmog'um izhor sendin g'ayra hojatim [6.172].

Mumtoz lirikaning murabba' janrida ijod qilgan shoir hayot, davr, zamon, tarixiy voqelik bilan bog'liq manzaralarni jonli aks ettirishga harakat qildi. "*Falak bedodin maskan mango ko'yi mazallatdur*" deb boshlanuvchi murabba'si ham realistik tamoyildagi she'riyatga kiritishimiz mumkin. Komil hayotida saroy muhiti bilan bog'liq voqeliklarga nazar tashlasak, nohaqliklar qurboni bo'lgani, uning ruhiy azoblanishiga, sabr kosasi to'lishiga olib keldi. Ushbu murabba' ham shoir hayotining achinarli sahifalarini yoritishi bilan qimmatlidir. Komil murabba'da shohga murojaat qilishi asnosida o'z ijtimoiy noroziligini bildirib o'tadi.

Siyosiy kurashlar natijasida ta'qibga uchragan shoir haqsizliklarga bardosh berishga urinadi. G'am-u qayg'u hujumidan ko'ngul kosasi to'lgan shoir esa bu kulfatlarga giriftor bo'lishida falak bedodidan ko'rgan haqoratlar ekanligini ta'kidlaydi:

Falak bedodin maskan manogo ko'yi mazallatdur,

Bu maskan ichra yor-u hamnishinim ranj-u kulfatdur [6.172].

Komil hukmdorning marhamatini xurshidga, gulshandagi guli humroga, o'zini esa bulbulga qiyoslaydi. Bu qiyoslar zamirida shoir o'zini xonga,

elga sidqidildan xizmat qilganligini, munosabatlarda doim yaqin ekanligini ifoda etadi. Shuning uchun ham Gul (hukmdor) etmas hech bulbul (shoir) suhbatidin or-u istig'no deya munosabatlariga oydinlik kiritib o'tadi.

Murabba'ning to'rtinchi bandiga kelib endilikda nima sababdan xonning lutf-u karamidan judo bo'lganligini afsuslanib so'raydi:

Meni mahzuninga to bo'ldi lutf-u iltifoting kam,

Boshimga shash jihatdin jam' o'lur dard-u balo-u g'am [6.173].

Shoir falak bedodidan qancha kulfat ko'rmasin, undan nafratlanmasin, o'sha jamiyatning boshida turuvchi xondan iltifot kutib, unga quyidagicha murojaat qiladi.

Takallum qil desang, bir to'tiyi shirin maqolingman,

Tarannum qil desang, bir bulbuli sho'rida holingman,

Vafo bog'ida o'z ilging bila ekan niholingman,

Shahim, rahm aylagil holimg'a, hangomi muruvvatdur [6.173].

Komilning "*Falak bedodin maskan manga ko'yi mazallatdur*" deb boshlanuvchi murabba'si shoir tarjimayi holini aniqlashtiradigan hujjatdir. Ma'lumki, Komil bilan Muhammadmurod o'rtasidagi nizolar shaxsiy manfaat yo'lidagi kurashlar emas, siyosiy tus olgan ikki guruh o'rtasidagi jang edi. Komilga ruhiy azob berish yo'lida Ibrohim kabi laganbardor shoirlar tilidan uning nomiga xos bo'lmagan hajvlar yozdirdilar va she'rlarni ashula qilib aytirishgacha borib yetdilar. Mana shu kinoyaviy hajvlardan ezilgan shoir qalbi butun vujudi suv bo'lib oqqanligini mubolag'ali yo'sinda tasvirlab xondan bu kinoyatdin qutqarishini so'nggi bandda shunday ifodalaydi:

Kinoyat so'z eshitib har safih-u past fitratdin, Vujudim suv bo'lib oqti ko'zimdin bu xijolatdin,

Boqib ko'z uchidin Komilni qutqar bu kinoyatdin,

Shahim, rahm aylagil holimga, hangomi muruvvatdur [6.173].

XULOSA. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, Komil murabba'lari son jihatdan oz bo'lsa ham badiiyat jihatdan juda mukammaldir. U murabba'navislik an'anasini davom ettirish bilan birga, ham ishqiy mavzuda, ham ijtimoiy mavzuda

ijod qildi. Davrining yangi ijtimoiy ahvoli tasvirini ham murabba'ga kiritdi. Shoir bu janr takomiliga munosib hissa qo'shdi. Komil murabba'larida shohga murojaat qilsa ham, madhiyabozlik yo'lidan bormadi. Aksincha, o'z ahvolini bayon qilish bilan birga, zamonasining ijtimoiy muammolariga ham ishora qildi va elparvarligini namoyish etdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Юнусов М. Комил Хоразмий. – Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти, 1960. 2. Каримов Ғ. Комил Хоразмий /Ўзбек адабиёти тарихи. 3-китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1966. – Б. 227-256.

3. Ҳайитметов А. Муҳаммадниёз Комил / Ўзбек адабиёти тарихи. V томлик. Бешинчи том. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 65-96.

4. Айёмий (Юнус Юсупов). Комил Хоразмий / Ўт чақнаган сатрлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983. – Б. 87-113.

5. Мажидий Р. Комил Хоразмий (Сўзбоши). “Танланган шеърлар”. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1961. – Б. 52.

6. Комил. Девон. Нашрга тайёрловчилар: А.Ҳайитметов, В.Мўминова. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975.– Б. 224.

7. Komil Xorazmiy. Musammatlar. Nashrga tayyorlovchi Sh.Nuriddinov. Qarshi: ILM-FAN-MA'NAVIYAT nashriyoti, 2024.

